

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/31.03.2021.Tar.05.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

MUSAYEV AZIZBEK BAXRIDINOVICH

**ASHTARXONIYLAR DAVRIDA FARG‘ONA VODIYSIDA
YUZ BERGAN SIYOSIY JARAYONLAR TAHLILI**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) disseratation

Musayev Azizbek Baxridinovich

Ashtarxoniylar davrida Farg‘ona vodiysida yuz bergan siyosiy jarayonlar tahlili 3

Мусаев Азизбек Бахридинович

Анализ политических процессов в Ферганской долине в период Аштарханидов..... 25

Musaev Azizbek Bakhridinovich

Analysis of the political processes in the Ferghana Valley during the Ashtarkhanid period 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 54

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/31.03.2021.Tar.05.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

MUSAYEV AZIZBEK BAXRIDINOVICH

**ASHTARXONIYLAR DAVRIDA FARG‘ONA VODIYSIDA
YUZ BERGAN SIYOSIY JARAYONLAR TAHLILI**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Tar1234 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)). Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.fdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Usmonov Baxriddin Axmedovich
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Erqo'ziyev Anvarjon Ashurovich
tarix fanlari nomzodi, dotsent

Aminov Bobur Bomurodovich
tarix fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/31.03.2021.Tar.05.05 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "30" 11 soat 9⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy, Farg'ona davlat universiteti, Tarix fakulteti, 2-qavat, majlislar zali. Tel.: (99873) 244-44-02; faks: (99873) 244-44-93; e-mail: fardu_info@umail.uz. Farg'ona davlat universiteti).

(425) Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (425 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. ARM binosi). (Tel.: (99873) 224-44-94).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "18" 11 kuni tarqatildi.
(2024-yil "18" 19 daqi 37- raqamli reyestr bayonnomasi)



N.B.Dexkanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi o'rinbosari, s.f.d., professor

N.O.Alimova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, t.f.d., dotsent

M.G'Abdullayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda sodir ayotgan globallashuv va integratsiya jarayonlarida mintqa, hududlar o'rtasidagi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy aloqalar turli xil yo'nalishlarda kuchayib borayotganligi barobarida davlatlar hamkorligi, barqaror rivojini ta'minlash dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Davlatlar va mintaqalar o'rtasida o'zaro hamkorlikni rivojlantirib, mustahkamlab borish zarurati taraqqiyotning ajralmas xususiyatlaridan biriga aylanib bormoqda. O'zaro integratsiya jarayonlarini yanada rivojlantirish ehtiyoji mintaqalardagi siyosiy o'zgarishlarning tarixiy ildizlariga murojaat qilishga va uni zamonaviy metodologiyalar asosida tadqiq etishni taqozo etmoqda.

Dunyoning ko'pgina yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tadqiqot markazlarida davlatchilik tarixiga doir keng ko'lamli izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, Markaziy Osiyo tarixining turli davrlari qatori Buxoro xonligida ashtarxoniyalar sulolasi boshqaruviga oid tadqiqotlar, asosan, Yaponiya, Rossiya, Yevropa va AQShdagi ilmiy markazlar tomonidan amalga oshirilmoqda¹. Mazkur ilmiy izlanishlarda xonlikdagi davlatchilik, harbiy san'at, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohada yuz bergan o'zgarish hamda etnik jarayonlar kabi ko'plab masalalar yoritilmoqda. Bugungi kunda insoniyat taqdiri, kelajagi davlatlar siyosati bilan chambarchas bog'liqligi sohani keng tadqiq etish ehtiyojini vujudga keltirmoqda. Shu boisdan, davlatlar va ularda hukmronlik qilgan sulolalar boshqaruvining boshlanishi, mustahkamlanish va inqirozi jarayonlarini tarixiy davrlar, mintqa, alohida hududlar kesimida anglash, tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonda keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirishda mintaqaning boy tarixi, madaniyati, an'analarini o'rganish, ularni asrab avaylash, saboqlar chiqarish muhim vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda. Shu boisdan ham Markaziy Osiyo tarixida salmoqli o'rin tutgan davlatlar, sulolalar boshqaruvi, unda sodir bo'lgan siyosiy jarayonlarni o'rganish, tadqiq etish dolzarblik kasb etadi. Zero, Prezident Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta'siri bo'lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o'rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur"². Shu nuqtai nazardan O'zbekistonning muhim geopolitik va geostrategik mintaqasi bo'lgan Farg'ona vodiysi tarixini tadqiq etish, o'ziga xos jihatlarini tahlil etish, ularni jamoatchiligiga yetkazish bo'yicha so'nggi yillarda ijobiy o'zgarishlar ko'zga tashlanmoqda. Biroq, Buxoro xonligi (ashtarxoniyalar sulolasi davri)ning tarkibidagi ayrim hududlar qatori Farg'ona vodiysida yuz

¹ Tsukuba universiteti: www.tsukuba.ac.jp/en, Rossiya Fanlar akademiyasi Sharq qo'lyozmalari instituti (IV RAN): www.ivran.ru, Avstriya Fanlar akademiyasi Eronshunoslik instituti: www.oeaw.ac.at, Afrika va Yaqin Sharq tadqiqotlari bo'yicha London universiteti (SOAS): www.soas.ac.uk, Kembrij universiteti Yaqin Sharq va Osiyoni o'rganish fakulteti (Faculty of Asian and Middle Eastern Studies): www.ames.cam.ac.uk, Oksford universiteti Osiyo va Yaqin Sharq o'rganish fakulteti (Faculty of Asian and Middle Eastern studies): www.orinst.ox.ac.uk, Indiana Blumington universiteti Markaziy Yevroosiyoni o'rganish (Central Eurasian studies): <https://ceus.indiana.edu>.

² Мирзиёев Ш.М. Жамият ҳаётининг танаси иқтисодиёт бўлса, унинг жони ва руҳи маънавийдир. 19.01.2021. <https://president.uz/uz/lists/view/4089>.

bergan siyosiy jarayonlar tadqiqotchilar nazaridan chetda qolib kelmoqda. Ayni holat ushbu jarayonlarni tarixiy manbalardan yanada samarali foydalangan holda, ko‘plab voqeliklarni mantiqiy izchilikda o‘rganish, tegishli ilmiy xulosalar chiqarish zaruriyatini vujudga keltirmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldagi PF–6165-son “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-fevraldagi PF–60-son “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 16-oktabrdagi 831-son “Axsikent arxeologiya merosi ob‘ektini muhofaza qilish va tadqiq etish yodgorlik majmuasini tashkil qilish bo‘yicha”, 2019-yil 14-dekabrda “2020 – 2024-yillarda Farg‘ona viloyatining Marg‘ilon va Qo‘qon shaharlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari shuningdek, ushbu sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innavatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish, ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Markaziy Osiyoning XVII – XVIII asr boshlari tarixiga oid olib borilgan tadqiqotlarda tanlangan mavzuning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy jihatlari ma‘lum ma‘noda o‘rganilgan. Ular hududiy va davriy tamoyillar asosida uch guruhga bo‘lib tahlil etildi. Jumladan, birinchi guruhi Rossiya imperiyasi hukmronligi davri va sovet hokimiyati yillarida yaratilgan asarlardan iborat. Ikkinchi guruhni mustaqillik yillarida olib borilgan ilmiy izlanishlar, uchinchisini xorijiy mamlakatlarda olib borilgan tadqiqotlar tashkil etadi.

Tarixshunoslik tahlili shuni ko‘rsatadiki, ashtarxoniylar davrida Farg‘ona vodiysining siyosiy tarixi bo‘yicha alohida tadqiqot olib borilmagan. Bu esa mazkur masalani o‘rganish ilmiy-nazariy jihatdan ahamiyatga molik vazifa ekanligidan dalolat beradi (Masalaning tarixshunosligi I bobning birinchi paragrafida batafsil yoritilgan).

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Farg‘ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Farg‘ona vodiysi tarixining dolzarb muammolari” mavzusi (№9, FDU IK 2019.30.05) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ashtarxoniylar hukmronligi davrida Farg‘ona vodiysidagi siyosiy jarayonlarning rivojlanish tendensiyalari va unga ta‘sir etgan omillarni tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Buxoro xonligida ashtarxoniylar sulolasining hokimiyatga kelishi va mazkur jarayonni Farg‘ona vodiysiga ta‘sirini tahlil etish;

Boqi Muhammadxon va Andijon hokimi Keldi Muhammadxon o‘rtasidagi kurashlar jarayonini tadqiq etish;

Farg‘ona vodiysida hokimlik qilgan Keldi Muhammadxon va Abul Muhammad Sulton kabilarning shaxsiyati haqidagi qarashlarga tarixiy manba hamda ilmiy adabiyotlardagi ma‘lumotlar tahlili orqali aniqlik kiritish;

Ashtarxoniylar tomonidan Farg‘ona vodiysini Buxoro xonligiga qo‘shib olinish jarayonini o‘rganish;

Farg‘ona vodiysini boshqargan hokimlarning shaxsi, faoliyati va mazkur hokimlikning o‘ziga xos jihatlarini tahlil etish;

Buxoro-Qozoq, Buxoro-Yorkend xonliklari o‘rtasidagi siyosiy-harbiy, diplomatik munosabatlarning rivojlanishida Farg‘ona vodiysining tutgan o‘rni va rolini ochib berish;

Farg‘ona vodiysining chegaralarida yashovchi ko‘chmanchi qabilalarning mintaqasi siyosiy hayotiga ta‘sirini tavsiflash;

Ashtarxoniylar davrida Farg‘ona vodiysida yuz bergan siyosiy jarayonlar tarixini o‘rganish natijalari asosidagi ilmiy xulosalardan kelib chiqib taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob‘ekti sifatida ashtarxoniylar hukmronligi davrida Farg‘ona vodiysida sodir bo‘lgan siyosiy jarayonlar belgilangan.

Tadqiqotning predmetini XVI asr oxiri va XVIII asrning boshlarida Farg‘ona vodiysining siyosiy hayoti hamda unga ta‘sir etgan ichki hamda tashqi omillar tahlili tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida ob‘ektivlik, xolislik, izchillik tamoyillari, qiyosiy-tarixiy, mazmuniy tahlil, tizimlashtirish, muammoviy-xronologik, mikrotarix kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Farg‘ona vodiysi hokimlari bo‘lgan Keldi Muhammadxon va Abul Muhammad sultonlarning shaxsiga yozma manbalar va qabrtosh bitiklaridagi ma‘lumotlarni qiyosiy tahlil etish orqali aniqlik kiritilib, ular qozoq sultonlari emas, balki shayboniy Suyunchxojaxon xonadonining so‘nggi vakillari ekanligi asoslangan;

Farg‘ona vodiysining ashtarxoniylar davlati tarkibiga kiritilishi Suyunchxojaxon xonadonining so‘nggi vakillarini o‘z hokimiyatlarini saqlab qolish uchun kurashi va Buxoro xonlarining qozoq sultonlari bilan Movarounnahrning shimoli-sharqiy hududlari uchun olib borgan raqobati natijasiga bog‘liq holda kechganligi sababli to‘rt bosqichda birinchi bosqich – Farg‘ona hokimi Keldi Muhammadxonning oliy hokimiyatda shayboniylar sulolasini tiklash uchun kurash davri (1599-1604-yillar), ikkinchi bosqich – Farg‘onada shayboniylar sulolasi hokimligi saqlangani holda ashtarxoniylar oliy hokimiyatining rasman o‘rnatilishi (1604-1614 yillar), uchinchi bosqich – vodiya shayboniylar sulolasi hokimligining barham topishi (1614-1619 yillar), to‘rtinchi bosqich – Farg‘onada Abulay sulton hokimligining tugatilishi va vodiyaning Buxoro xonligi tarkibiga kiritilishi (1619-1631 yillar) ilmiy dalillangan;

Farg‘ona vodiysida hokimlik qilgan Keldi Muhammadxon, Abul Muhammad sulton, Abulay sulton, Pir Muhammad sulton, Muhammadyor sulton, Fozilxo‘ja, Boqibiy yuz (Aksi), Bahrom sulton (Aksi), Abdurahmon otaliq (Andijon) shaxsi va ularning siyosiy faoliyatiga aniqliklar kiritilgan;

Yorkend xoni Abdullaxon Farg‘ona vodiysiga to‘rt marotaba yurish amalga oshirgani, mazkur hujumlarning ikkinchi hamda uchinchi bevosita Andijon atroflarida bo‘lib o‘tganligi, vodiya dastlabki bosqin mintaqaning sharqiy hududlarini talon-taroj qilish bilan cheklangani, so‘nggisi esa Abdullaxonning o‘g‘li Nuriddinni to‘satdan vafot etishi tufayli oxiriga yetmaganligi tarixiy manbalar asosida izohlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Tadqiqot mavzusi uchun muhim hisoblangan “Tarixi miftoh ul-qulub”, “Imomqulixonoma”, “Bahr ul-asror” kabi manbalarning Farg‘ona vodiysida kechgan siyosiy jarayonlarga oid ma’lumotlari o‘zbek tarixshunosligiga ilk marotaba ilmiy muomalaga kiritildi;

Ashtarxoniylar davrida Farg‘onada yuz bergan siyosiy voqealar va ularning bo‘lib o‘tgan sanalari (Farg‘onaning mustaqil mahalliy amirlari kimligi masalasi, ularning hokimlik yillari, hududni Buxoro xonligi tarkibiga kiritilishi va tashkil etilgan ma’muriy-hududiy birliklar, ularning hokimlari faoliyatlariga oid sanalar) aniqlangan;

Ashtarxoniylarning Qozoq va Yorkend xonliklari bilan munosabatlarida Farg‘ona vodiysining muhim geosiyosiy o‘rni ko‘rsatib berilgan;

Farg‘ona vodiysining ashtarxoniylar davridagi tarixini tadqiq etish va Qo‘qon xonligining tashkil topish jarayonining mohiyatini yanada teran anglash bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi Vatan tarixini o‘rganishdagi yangi yutuqlar, samarali nazariy usullarga tayanilganligi, O‘zbekiston va jahonning nufuzli ilmiy fondlarida saqlanayotgan mavzuga oid qo‘lyozma manbalardan olingan ma’lumotlar ilmiy adabiyotlar bilan qiyosiy tahlil qilinib, tegishli xulosalar chiqarilib, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, ashtarxoniylar sulolasi tarixini lokal yo‘nalishida, mikrotarix usulida tadqiq etish, markaziy hududlardagi jarayonlarning chekka viloyatlarga ta‘sirini o‘rganish, Buxoro xonligining shimoli-sharqiy chegaralarida yuz bergan siyosiy jarayonlarda Farg‘ona vodiysining tutgan o‘rni va rolini tahlil etish, Qo‘qon xonligi tashkil topishining tarixiy ildizlarini chuqur anglashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ashtarxoniylar davrini o‘rganish bo‘yicha o‘tkaziladigan ilmiy tadqiqotlarda, O‘zbekiston va Farg‘ona vodiysi tarixiga oid davlat dasturlarini bajarishda, dissertatsiyadagi umumlashtirilgan ma’lumotlaridan O‘zbekistonning o‘rta asrlar davri tarixini yangi qirralarini targ‘ib qilishda maktab, litsey, oliy o‘quv yurtlari talabalari va o‘qituvchilari uchun o‘quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratishda foydalanish mumkinligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ashtarxoniylar davrida Farg‘ona vodiysida yuz bergan siyosiy jarayonlar tahlilini tadqiq etish bo‘yicha qo‘lga kiritilgan natijalar, ilmiy xulosa va takliflar asosida:

Farg‘ona vodiysining hokimlari bo‘lgan Keldi Muhammadxon va Abul Muhammad sultonlarning shaxsiga yozma manbalar va qabrtosh bitiklaridagi ma‘lumotlarni qiyosiy tahlil etish orqali aniqlik kiritilib, ular qozoq sultonlari emas, balki shayboniy Suyunchxojaxon xonadonining so‘nggi vakillari ekanligi asoslanganligi kabi ilmiy xulosalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston tarixi” teleradiokanalining “Taqdimot” ko‘rsatuvi senariysini shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston tarixi” teleradiokanali davlat muassasasining 2024-yil 2-maydagi 02-06-596-son ma‘lumotnomasi). Natijada, ko‘rsatuvning XVII asr boshlarida Farg‘ona vodiysida kechgan tarixiy jarayonlarga oid ma‘lumotlar va ilmiy dalillarga boy bo‘lishi ta‘minlangan;

Farg‘ona vodiysining Ashtarxoniylar davlati tarkibiga kiritilishi Suyunchxojaxon xonadonining so‘nggi vakillarini o‘z hokimiyatlarini saqlab qolish uchun kurashi va Buxoro xonlarining qozoq sultonlari bilan Movarounnahrning shimoli-sharqiy hududlari uchun olib borgan raqobati natijasiga bog‘liq holda kechganligi sababli to‘rt bosqichda (birinchi bosqich – Farg‘ona hokimi Keldi Muhammadxonning oliy hokimiyatda shayboniylar sulolasini tiklash uchun kurash davri (1599-1604-yillar), ikkinchi bosqich – Farg‘onada shayboniylar sulolasi hokimligi saqlangani holda ashtarxoniylar oliy hokimiyatining rasman o‘rnatilishi (1604-1614 yillar), uchinchi bosqich – vodiya shayboniylar sulolasi hokimligining tugatilishi (1614-1619 yillar), to‘rtinchi bosqich – Farg‘onada Abulay sulton hokimligining tugatilishi va vodiyning Buxoro xonligi tarkibiga kiritilishi (1619-1631 yillar)ga doir ma‘lumotlardan Farg‘ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi ekspozitsiyasini shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining 2024-yil 8-maydagi 04-05/1762-son ma‘lumotnomasi). Natijada, ushbu materiallar muzeyning “Tarix” bo‘limi fondini boyitishga, muzeyning o‘lka tarixiga oid manbalarini ilmiylik va ishonchlilik jihatdan takomillashtirishga xizmat qilgan;

Farg‘ona vodiysida hokimlik qilgan Keldi Muhammadxon, Abul Muhammad sulton, Abulay sulton, Pir Muhammad sulton, Muhammadyor sulton, Fozilxo‘ja, Boqibiy yuz (Aksi), Bahrom sulton (Aksi), Abdurahmon otaliq (Andijon) shaxsi va ularning siyosiy faoliyatiga aniqlik kiritilishida muhim ahamiyatga ega birlamchi tarixiy manba va ilmiy adabiyotlarning nusxalari Farg‘ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi “Tarix” bo‘limiga taqdim etilishi orqali muzey fondi yanada boyitildi (O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining 2024-yil 8-maydagi 04-05/1762-son ma‘lumotnomasi). Natijada, muzeyga taqdim etilgan ma‘lumotlar, bu yerga tashrif buyurgan mahalliy va xorijiy sayyohlarning Farg‘ona vodiysining so‘nggi o‘rta asrlari tarixiga oid bilim va tasavvurlarini yanada boyitishga xizmat qilgan;

Yorkend xoni Abdullaxon Farg‘ona vodiysiga to‘rt marotaba yurish amalga oshirgani, mazkur yurishlarning ikkinchi hamda uchinchisi bevosita Andijon atroflarida bo‘lib o‘tganligi, vodiya dastlabki yurish mintaqaning sharqiy hududlarini talon-taroj qilish bilan cheklangani, so‘nggi yurish esa Abdullaxonning o‘g‘li Nuriddinni to‘satdan vafot etishi tufayli oxiriga yetmaganligi xususidagi

ilmiy ma'lumotlardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali" davlat muassasasi "O'zbekiston tarixi" telekanalining "Taqdimot" ko'rsatuvi senariysini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanali" davlat muassasasining 2024-yil 2-maydagi 02-06-596-son ma'lumotnomasi). Foydalanilgan materiallar ko'rsatuvning ilmiy-ommabop hamda qiziqarli bo'lishini ta'minlagan holda teletomoshabinlarga yangi tarixiy ma'lumotlarni yetkazib berilishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy-nazariy konferensiya va seminarlarda, jumladan, 5 ta xalqaro hamda 2 ta respublika ilmiy-nazariy konferensiyalarida aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa hamda foydalanilgan manbalar, adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 150 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi asoslanib, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob'ekti va predmeti aniqlangan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, olingan natijalarning ishonchligi asoslangan hamda ularning nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, ishning aprobatsiyasi va tarkibiy tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Xususan, tadqiqotning "**Masalaning tarixshunoslik va manbashunoslik tahlili**" deb nomlangan birinchi bobida mavzuning fanda o'rganilishi va manbashunoslik masalalari tahlil qilingan. Bobning birinchi paragrafi tadqiqotning tarixshunoslik masalasiga bag'ishlangan bo'lib, unda mavzu yuzasidan erishilgan yutuqlar bilan birga, uning kam o'rganilgan jihatlari, muammoli tomonlari haqida fikr-mulohazalar bildirilgan. Mavzuga oid tadqiqotlar davriy va geografik jihatdan uch guruhga bo'lib tahlil etildi. Jumladan, birinchi guruhini Rossiya imperiyasi hukmronligi davri va sovet hokimiyati yillarida yaratilgan asarlar tashkil etdi. Bu davrdagi tadqiqotlarning yo'nalishi xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Unda Buxoro xonligining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatlari qamrab olingan. Shuningdek, mazkur davrda Qo'qon xonligi tarixini o'rganish orqali tadqiqot etilayotgan mavzu bo'yicha dastlabki qarashlar ham vujudga keldi. V.V.Velyaminov-Zernov, V.P.Nalivkin, V.V.Bartol'd, A.Z.Validiy, R.N.Nabiyev, M.A.Abduraimov, B.A.Ahmedov, R.G.Mukminova, M.X.Abuseitova va boshqalarning olib borgan o'rganishlarida tanlangan mavzuga taalluqli mulohazalar uchraydi³. Mazkur tadqiqotlarning aksariyati O'zbekiston va

³ Вельяминов-Зернов В.В. Исследование о касимовских царях и царевичах. – Санкт-Петербург: Типография Императорской Академии наук. Том 2, 1864. – 498 с.; Краткая история Кокандского ханства /

Rossiyadagi mavjud manbalar bilan cheklanganligi uchun adabiyotlardagi fikrlarning ba'zilarida takror qo'llanadi. Shuningdek, mazkur davrga oid ko'plab manba va rasmiy hujjatlar tarjima qilinib, ilmiy muomilaga tortish bo'yicha samarali ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, mavjud siyosiy jarayonlarga biryoqlama yondashilganlik holatlarini ko'plab o'rinlarda uchratish mumkin.

Ikkinchi guruh mustaqillik yillarida olib borilgan ilmiy izlanishlardan iborat. Ushbu yillarda O'zbekistonda ashtarxoniyalar sulolasi va Qo'qon xonligi tarixiga oid bir qancha tadqiqotlar olib borildi. Shuningdek, Farg'ona vodiysining o'rta asrlar tarixini alohida o'rganish bo'yicha qator tadqiqotlar e'lon qilindi⁴. Shuningdek, B.Ahmedov, A.Ziyo, D.Sangirova, H.Bobobekov, B.Babadjanov, R.Shamsutdinov, A.Erkinov, B.Matboboyev, R.Akbarov, A.Zamonov, Sh.Ro'zmatova, Sh.Qo'ldashev, J.Sangirov kabi olimlarning ishlarida mavzuga oid ayrim fikrlar bildirib o'tilgan⁵. Mazkur mulohazalarning aksariyati Qo'qon xonligi tashkil topishining sabablarini izohlash uchun bildirilganligi bilan ajralib turadi.

составил В. Наливкин. – Казань: типография Императорского университета, 1886, IV. – 215 с.; Бартольд В.В. Отчет о командировке в Туркестан. / Записки Восточного Отделения Императорского Русского Археологического Общества. Том XV. 1902-1903. СПб.: Типография Императорской Академии Наук, 1904. – 246 с.; O'sha muallif. Очерк истории Семиречья. Киргизск. фил. Акад. Наук СССР, Институт языка, лит. и истории. – Фрунзе: Киргизгосиздат, 1943. – 104 с.; O'sha muallif. Киргизы: (исторический очерк). – Фрунзе: Кирг. гос. изд-во, 1927. – 57 с.; Валидов А.З. Некоторые данные по истории Ферганы XVIII столетия // Протоколы заседаний и сообщения членов Туркестанского кружка любителей археологии. Год XX (11 декабря 1914 г. - 11 декабря 1915 г.). Вып. 2. Ташкент: 1916. – С. 68-87; Набиев Р.Н. Новые документальные материалы к изучению феодального института “суюргал” в Фергане XIV-XVII вв., ИАН СОИ УзССР, 1959, №3. – С. 23-32.; Абдураимов.М.А. Очерки аграрных отношений в Бухарском ханстве в XVI – первой половине XIX века. Том 1. Ташкент: Фан, 1966. – 349 с.; O'sha muallif. Очерки аграрных отношений в Бухарском ханстве в XVI — первой половине XIX века. Том 2. Ташкент: Фан, 1970. – 286 с.; Ахмедов.Б.А. История Балха (XVI – первая половина XVIII в.). – Тошкент: Фан, 1982. – С. 97; Казахстан, Средняя и Центральная Азия в XVI – XVIII вв. – Алма-Ата: Наука, 1983. – С. 146-147; Мукминова Р.Г. Тўрт аср олдинги Тошкент. – Тошкент: Фан, 1984. – Б. 45-46; Абусейтова М.Х. Казахское ханство во второй половине XVI века. – Алма-Ата: Наука, 1985. – 104 с.; Материалы по истории Средней и Центральной Азии X – XIX вв. [Перевод] / АН УзССР, Ин-т востоковедения им. Абу Райхана Беруни; [Отв. ред. Б.А.Ахмедов]. – Ташкент: Фан, 1988. – 414 с.

⁴ Усмонов Б.А. Фарғона водийси Амир Темур ва Темурийлар даврида: Тарих. фан. док... дисс. – Тошкент: ЎзР ФА Тарих институти, 2019. – 276 б.; Юлдашев С.Б. V–X асрларда Фарғона водийсидаги сиёсий, ижтимоий-иқтисодий ва маданий жараёнлар: Тарих фан. PhD... дисс. – Андижон: Андижон давлат университети, 2021. – 184 б.; Нишонов А.А. Шайбонийлар хукмронлиги даврида Фарғона водийсидаги сиёсий жараёнлар: Тарих фан. фал. док... дисс. – Фарғона: Фарғона давлат университети, 2022. – 156 б.

⁵ Ахмедов Б. Тарихдан сабоқлар. Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – 432 б.; Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи: (Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар) // Масъул муҳаррир: Б.Ахмедов. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 260; Сангирова Д. Суҳайл: “Имомқулинома”. // Moziydan sado. №1 (37). – Тошкент: 2008. – В. 21-22; O'sha muallif. Бир сулола шажараси ҳақида. // Sharq mash'ali. №2. Тошкент: 2018. – В. 33-39; O'sha muallif. Haj ziyorati va hukmdor hojilar. // Ўтмишга назар. №18. Тошкент: 2019. – Б. 24-37; O'sha muallif. Ялангтўш Баҳодирнинг Ўрта Осиё ижтимоий-сиёсий ва маданий ҳаётидаги тутган ўрни. // Паёми Донишқада. Нашри махсус. №2, 2019. – Б. 372-379; Бобобеков Ҳ.Н. Қўқон тарихи. – Тошкент: Фан, 1996. – 239 б.; Babadjanov V.M. Кокандское ханство: власть, политика, религия / Б.М. Бабаджанов; рец. С.У. Каримова, Н.И. Тошев; Nihu islamik area studies (Tokyo university), Институт востоковедения Академии наук Республики Узбекистан. – Ташкент; Токио: Yangi nashr, 2010. – 744 с.; Шамсутдинов Р., Исҳоқов А. Андижон тарихидан лавҳалар. – Тошкент: Sharq, 2013. – Б. 96; Эркинов А. “Олтин бешик” афсонаси ва Дақоқий Самарқандийнинг “Бахтиёрнома” асари // Jahon adabiyoti. № 203. – Тошкент: 2014. – Б. 181-188; Матбобоев Б.Х. Андижон тарихи: (қадимги даврлардан XX аср бошларигача). – Тошкент: Sharq, 2014. – Б. 33; Akbarov R.X. Qo'qon xonligi tarixi. O'quv-uslubiy ko'rsatma. – Farg'ona, 2015. – 141 б.; Zamonov A. Buxoro xonligi tarixi. Metodik qo'llanma. – Toshkent, Bayoz, 2021. – 264 б.; O'sha muallif. Buxoro xonligining Ashtarxoniy hukmdorlari. – Toshkent: Bayoz, 2021. – 136 б.; O'sha muallif. Buxoro xonligining hoji hukmdorlari haqida ba'zi mulohazalar // O'zMU xabarlar. №1/9/1. – Toshkent: 2022. – В. 4-7; Рўзматова Ш.А. XVII аср охири XVIII аср бошларида Фарғона водийсидаги ижтимоий-иқтисодий, сиёсий жараёнлар // Ўтмишга назар. Махсус сон. – Тошкент: 2020. – Б. 444-451; Қўлдашев Ш. Қўқон хонлиги ва Шарқий Туркистон: сиёсий, иқтисодий ва

Uchinchi guruhga xorijiy mamlakatlarda olib borilgan tadqiqotlar kiradi. Xususan, XVII asr tarixini yoritishga bag'ishlangan xorijlik olimlarning ko'plab ilmiy izlanishlarida Farg'ona vodiysiga oid fikr-mulohazalar ham uchraydi. Olib borilgan tadqiqotlarning aksariyatida Buxoro xonligining diplomatik munosabatlari, markaziy hokimiyatning kuchayish yoki inqiroziga sabab bo'lgan omillar, hududdagi ijtimoiy munosabatlar, etnik xilma-xillik, ashtarxoniyalar sulolasining yirik vakillari, shaharlar taraqqiyoti va savdo munosabatlariga oid ma'lumotlar mavjud. Shunga qaramay, qator olimlarning e'lon qilgan ilmiy nashrlarida Farg'ona vodiysiga oid o'rinli fikrlar ham bor⁶. Mazkur yo'nalishda olib borilgan ilmiy nashrlar guruhining asosiy yutug'i sifatida mavjud manba va arxiv hujjatlarning aksariyatidan unumli foydalanilgani, tadqiqot olib borish usullarining zamonaviyligi bilan ajralib turishini alohida qayd etish mumkin.

маданий алоқалар. – Тошкент: Akademnashr, 2021. – 256 б.; Сангиров Ж.А. Ҳофиз Таниш Бухорийнинг “Имомкулихоннома” асари ва унинг аштархонийлар тарихини ўрганишдаги ўрни // “O‘zbekiston tarixining dolzarb muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. Farg‘ona, 2022. – B. 256-266; O‘sha muallif. Аштархонийлар сулоласи даврида худудий бошқарув тизими (вилоят бошқарув тизими) // Бухоро тарихи масалалари (энг қадимги замонлардан ҳозиргача) мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция материаллари. Бухоро, 2023. – Б. 261-265; O‘sha muallif. Ўзбек давлатчилиги аштархонийлар даври тарихи Туркистон ёзма манбаларида // O‘zbekiston tarixi, 2023-yil 1-son. – B. 36-105.

⁶ Вамбери А. Бухоро ёхуд Мовароуннаҳр тарихи. – Тошкент: Info Capital Group, 2019. – 272 б.; Burton, J. Audrey. “Who Were the First Ashtarkhānid Rulers of Bukhara?” Bulletin of the School of Oriental and African Studies, University of London, vol. 51, №3, 1988. – P. 482–488; o‘sha muallif. Nadir Muḥammad Khān Ruler of Bukhara (1641-1645) and Balkh (1645-1651). Central Asiatic Journal, vol. 32, no. 1/2, 1988. – P. 19-33; O‘sha muallif. The Bukharans: A Dynastic, Diplomatic and Commercial History 1550-1702 (Richmond Surrey: Curzon Press, 1997). – 664 p.; Моисеев В.А. Джунгарское ханство и казахи (XVII – XVIII вв.). – Алма-Ата: Гылым, 1991. – С. 48; Кляшторный С.Г., Султанов Т.И. Казахстан. Летопись трех тысячелетий. Алма-Ата, Рауан. 1992. – 300 с.; Караев О.К. Чагатайский улус. Государство Хайду. Могулистан. Образование кыргызского народа. – Бишкек: Кыргызстан, 1995. – 160 с.; Абусейтова М.Х. Казахстан и Центральная Азия в XV–XVII вв.: история, политика, дипломатия. – Алматы: Дайк-Пресс, 1998. – 268 с.; Абусейтова М.Х., Баранова Ю.Г. Письменные источники по истории и культуре Казахстана и Центральной Азии в XIII-XVIII вв. (биобиблиографические обзоры). – Алматы: Дайк-Пресс, 2001. – 426 с.; Бактыгулов Дж.С., Момбекова Ж.К. История кыргызов и Кыргызстана с древнейших времен до наших дней. – Бишкек: Кыргызстан, 2001. – 344 с.; Bregel, Yuri. An historical atlas of Central Asia.p.cm. – (Handbook of Oriental Studies Section eight. Central Asia; Vol.9), – Leiden Boston: Brill, 2003. – 109 p.; Акимушкин О.Ф. Средневековый Иран: Культура, история, филология. — СПб.: Наука, 2004. – С. 229-230; Алексеев А.К. Политическая история Тукай-Тимуридов: По материалам персидского исторического сочинения Бахр ал-асрар. – СПб.: Изд-во С.-Петербур. ун-та, 2006. – 229 с.; Султонов Т.И. Поднятые на белой кошме. Ханы казахских степей. Астана, 2006. – С. 223-224; Тулибаева Ж.М. Бабуридские источники // Персоязычные источники по истории казахов и Казахстана XIII - XIX вв. – Астана: Евразийский национальный университет им. Л.Н. Гумилева, 2006. – С.113-130; История Казахстана в персидских источниках / Отв. ред. М.Х. Абусейтова; сост. М.Х. Абусейтова. – Алматы: Дайк-Пресс, 2007. Том V. Извлечения из сочинений XIII-XIX веков. – 476 с.; Саидов А. Политическое и социально-экономическое положение Бухарского ханства в XVII - первой половине XVIII вв. Дисс. д-ра. ист. наук. – Душанбе: 2007. – 301 с.; Тулибаева Ж.М. История Казахстана в Аштарханидских источниках // Доклады НАН РК – Алматы, 2013. – № 4. – С. 126-140.; Çelik M.B. Yarkend hanlığı'nın siyasi tarihi. IQ Kültür Sanat Yaumcılık – İstanbul, 2013. – 264 s.; Пилипчук Я.В. Падение Моголистана и уйгурских государств в XVII-XVIII вв. // Доклады НАН Республики Казахстан. Том 5. 2016. – С. 285-301.; Атыгаев Н. Казахские женщины при дворах иностранных правителей (XV–XVII вв.) // Электронный научный журнал «edu.e-history.kz». 2017 (1). – С. 28; Джуразода Д.Х., Ализода Д.А. История политических событий Хорасана и Мавераннахра XVIII века (по материалам письменных источников). – Худжанд: Нури маърифат, 2021. – С. 45-47; Атыгаев Н. “Орбулакское сражение”: Мифы и факты // Вестник ЕНУ имени Л.Н. Гумилева. Серия: Исторические науки. Философия. Религиоведение. 2022. №4 (141). – С. 22-36; Саидов Ф.А. Историко-географические сведения Махмуда ибн Вали о Мавераннахре и Хорасане конца XVI - первой половины XVII вв. Дисс. д-ра. ист. наук. – Душанбе: 2022. – 158 с.; Атыгаев Н. Казахское ханство: очерки внешнеполитической истории XV – XVII веков. Алматы: Евразийский научно-исследовательский институт МКТУ им. Х.А.Ясави, 2023. – С. 130; Şeyda D. Buhara hanlığı'nda İmamkulu han dönemi (1611-1641). Doktora Tezi. – Afyonkarahisar: Afyon Kocatepe Üniversitesi, 2023. – 62-66;

Masalaning tarixshunoslik tahlili natijasi tadqiqot mavzusi alohida o'rganilmagani, mazkur masala bo'yicha qator munozarali jihatlar mavjud ekanligini ko'rsatadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi paragrafi manbashunoslik tadqiqiga oid bo'lib, ular mos ravishda uch guruhga bo'lingan.

I. Tarixiy asarlar. Farg'ona vodiysining tanlangan tadqiqot davri bo'yicha uchraydigan bu turkumdagi manbalar ham geografik jihatdan to'rt guruhga bo'lingan: 1) Mahalliy tarixchilarning asarlari; 2) Eron (Safaviylar)da yozilgan manbalar; 3) Boburiylar saltanatida yaratilgan asarlar; 4) Yorkend xonligida bitilgan manbalar.

I.1. Mahalliy tarixchilarning asarlari. Buxoro, Balxda turib yozilgan bu asarlar Muhammadyor ibn Arab Qatag'on, Mahmud ibn Vali, Hofiz Tanish Buxoriy, Xoja Samandar Muhammad ibn Baqo Termiziy, Muhammad Yusuf munshiy, Mir Muhammad Amini Buxoriy, Muhammad Amin Buxoriy, Muhammad Yoqub Buxoriyning qalamiga mansub bo'lib, tadqiqotda ilgari surilgan asosiy xulosalar mazkur muarrixlarning bergan ma'lumotlariga asoslangan⁷. Ba'zi o'rinlarda Qo'qon xonligida yaratilgan asarlardan ham o'rinli foydalanildi⁸.

I.2. Eron (Safaviylar sulolasi)da yozilgan manbalar. Safaviylar davlati Buxoro xonligini boshqargan shayboniy va ashtarxoniy hukmdorlar bilan faol aloqalar olib borgan. Xuroson masalasi ikki tomonning manfaati to'qnashgan hudud bo'lganligi uchun munosabatlar uzoq vaqt ziddiyatli kechganligini ko'rish mumkin. Eronlik muarrixlar Iskandar munshiy, Ahmad ibn Shamsiddin, Mulla Jaloliddin Munajjim asarlaridagi voqealarning aksariyati Xurosonda kechgan siyosiy jarayonlarga bog'liq bo'lsa-da, ayrim o'rinlarda mavzuga oid boshqa manbalarda qayd etilmagan muhim jihatlar yoritilgan⁹. Ayni manbalar bo'lib o'tgan voqea-hodisalarning sanalariga aniqlik kiritishi bilan boshqalaridan farq qiladi.

⁷ Мухаммадёр ибн Араб Қатаған. Мусаххир ал-билод / Тасхихи Нодира Жалолӣй. – Тохрон: Мероси Мактуб, 2008. – 362 б. (Форс тилида); Мухаммадёр ибн Араб Қатаған. Мусаххир ал-билод (мамлакатларнинг эгалланиши) / Форс тилидан таржима, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари И.Бекжонов, Д.Сангирова. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. – 429 б.; بحر الأسرار في مناقب الأخيار / محمود بن ولي. محمد طاهر بن ابوالقاسم. O'zR FA SHI. Qo'lyozma №89. – 150 b.; Термизий, Хожа Самандар. Дастур ул-мулук: Подшоҳлар учун дастур (тўлдирилган иккинчи нашри) форс-тожик тилидан эркин таржима, сўз боши, тадқиқот, ҳикоялар, изоҳлар муаллифи Ж. Эсонов. – Тошкент: Шарқ, 2001. – 351 б.; Мухаммед Юсуф Мунши. Муқим-ханская история. Перевод с перс-таджик. примечания и указатели А.А.Семенова. – Ташкент, 1956. – 303 с.; Мир Мухаммад Амини Бухари. Убайдулла-наме. / Перевод с таджикского с примечаниями член-корреспондента Академии Наук Узбекской ССР профессора А.А. Семёнова. – Ташкент, 1957. – 326 с.; Мухаммад Амин Бухорий. Мухит ат-таворих. / Форс тилидан таржима, кириш ва изоҳлар муаллифлари: академик Д.Ю.Юсупова ва т.ф.н. У.Ҳамроев. – Тошкент: Fan, 2020. – Б. 139-145; The sea of chronicles (Muḥīt al-tavārikh) / by Muḥammad Amīn b. Mīrẓā Muḥammad Zamān Bukhārī (Sūfiyānī); translated and annotated by Mehrdad Fallahzadeh, Forogh Hashabeiky. – Leiden; Boston: Brill, 2020. – P. 146; گلشن الملوك. محمد يعقوب بخارى. O'zR FA SHI. Qo'lyozma № 1507/III. – B. 245a; عجایب الطقات. بلخی. O'zR FA SHI. Qo'lyozma № 2380. – B. 199a-201b.

⁸ Ибратул хавокин / Ниёз Мухаммад Хўқандий; (Та'рихи Шахрухий): Худоёрхон авлодлари тарихи / Шоҳрухбек Умаров. – Тошкент: Turon Zamin ziyo, 2014. – 700 б.; Мухаммадҳакимхон тўра. Мунтахаб ат-таворих: (Хўқанд ва Бухоро тарихи, саёҳат ва хотиралар) / Мухаммад Ҳакимхон тўра; форс-тожик тилидан тарж., муқаддима, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи Ш. Воҳидов. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. – 716 б.; Мирзоолим Мушриф. Ансоб ус-салотин ва таворих улхавоқин / Нашрга тайёрловчилар А.Матғозиев, М.Усмонова. – Тошкент, 1995. –128 б.; Мулла Олим Маҳдумхожа. Тарихи Туркистон. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2008. – 241 б.; Худоёрхонзода. Анжум ат-таворих (Тарих юлдузлари) – Тошкент: Фан ва технология, 2014. – Б. 80-92.

⁹ Eskandar Beg Monshi. History of Shax Abbas the Great (Tārīkh-e Ālamārā-ye 'Abbāsī) / translate by Roger M. Savory. Volume II – Colorado: Westview Press, 1930. – 1392 p.; Ёсғандәр бәй Мүншӣ Түркман. Дүняы бәзәён

III. Elchilik va huquqiy hujjatlar. Rossiya imperiyasi Buxoro xonligi bilan mazkur davrda ham faol diplomatik munosabatlar olib borgan bo‘lib, ushbu elchilik missiyalarining hisobotlarida ham masalani yoritishga doir muhim tafsilotlar o‘rin olgan. Ayniqsa, 1620–1622-yillarda Buxoro va Xiva xonliklarida bo‘lgan Ivan Danilovich Xoxlovning hisoboti bu borada alohida ahamiyatga egadir¹⁴. Uning Imomqulixon va qozoq xoni Tursunxon o‘rtasidagi ziddiyatlar va buning oqibatida bo‘lib o‘tgan janglar haqida ma‘lumotlari hamda Nadr Muhammadxonning rus podshosi Mixailga yuborgan xati tadqiqot uchun qimmatlidir.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida №1644 inventar raqami bilan saqlanadigan “Yorliqlar to‘plami” Farg‘ona vodiysining XVII asrga oid tarixini tadqiq qilishda alohida o‘rin tutadi. Mazkur to‘plamdagi hujjatlar vodiyni ijtimoiy-iqtisodiy, boshqaruv tartibi, soliq tizimi kabi muhim ma‘lumotlarni berishi bilan ajralib turadi. Yorliqlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ashtarxoniylar davriga oid dastlabki hujjat 1600-yil, so‘nggisi esa, 1671-yilga tegishli bo‘lib, ular sayyid Zohid, sayyid Fazlullo, sayyid Fathullo va sayyid Kamoliddinlarga berilgan yorliqlardir¹⁵. O‘zbekiston Milliy arxivining 19-fond, 1-ro‘yxatida Qo‘qon xonligiga oid ko‘plab hujjatlar saqlanadi. Mazkur hujjatlar 2010-yilda nashr etilgan¹⁶.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Farg‘ona vodiysi uchun kurash va uning natijalari**” deb nomlanadi. Uning “Vodiydagi shayboniylarga qarshi kurashning boshlanishi” nomli birinchi paragrafida XVII asrning ilk yillarida Farg‘ona vodiysida kechgan siyosiy jarayonlar tahlili bayon etilgan.

Xususan, 1598-yil dastlab, shayboniylarning yirik vakili Abdullaxon II, so‘ng esa, Abdulmo‘minxonning vafot etishi hamda qozoq xoni Tavakkalxonning bostirib kirishi oqibatida Buxoro xonligi ancha zaiflashib qolgan. O‘zaro kurashlar oqibatida shayboniylar sulolasining Farg‘ona vodiysidagi hukmronligiga vaqtincha chek qo‘yilishiga qaramay, ko‘p o‘tmay Buxoro xonligining markazi hamda janubiy sarhadlarda kechgan voqealar natijasida Suyunchxojaxon xonadoni vakili Keldi Muhammadxon Andijon hokimligini qo‘lga kiritgan. Mazkur shayboniy sulton haqida manbalardagi turli qarashlar natijasida u ko‘plab ilmiy adabiyotlarda qozoq sultoni deb qayd etildi. Bu esa XVII asrning dastlabki o‘n yilligida vodiyy Qozoq xonligi hukmronligi ostida bo‘lganligi haqidagi qarashlarni shakllanishiga olib keldi¹⁷. “Musaxxir al-bilod”, “Bahr ul-asror”, “Tarixi miftah ul-qulub” va qabrtosh bitiklarini o‘rganish natijasida Keldi Muhammadxon shayboniy Suyunchxojaxon xonadonining vakili ekanligi oydinlashdi¹⁸.

¹⁴ Сборник князя Хилкова: [документы по истории России XVI-XVII вв.] / [кн. Григорий Хилков]. – Санкт-Петербург: Тип. брат. Пантелеевых, 1879. – 579 с.

¹⁵ Жувонмардиев А. XVI – XIX асрларда Фарғонада ер-сув масалаларига доир. – Тошкент: Фан, 1965. – Б. 106, 125-126.

¹⁶ Набиев Р.Н. Вақфное хозяйство Кокандского ханства. / Составитель и автор предисловия. Х.Бабабеков – Ташкент, 2010. – 648 с.

¹⁷ Алексеев А.К. Политическая история Тукай-Тимуридов. ... – С. 112; Султонов Т. Поднятые на белой кошме. ... – С. 223; Тулибаева Ж.М. История Казахстана в Аштарханидских источниках. ... – С. 135; Абусейтова М.Х. Казахстан и Центральная Азия в XV–XVII вв. ... – С. 185.

¹⁸ Мухаммадёр ибн Араб Қатаған. Мусаххир ал-билод. ... – Б. 173; ... بحر الاسرار. – В. 62а; Ahmad b. Shams al-Dīn. Tārikh-i miftāh al-qulūb. ... – В. 558а; Шайбонийлар қабртошларидаги битиклар / Нашрга тайёрловчилар: Б.Бобожонов, А.Мўминов, Ю.Пауль. – Висбаден: Доктор Людвиг Райхерт, 1997. – Б. 48.

Ushbu vaqtda Buxoro xonligidagi sulola almashinuvi natijasida hokimiyat ashtarxoniylar qo‘liga o‘tdi. Sulolaning ilk vakillaridan biri Boqi Muhammadxon xonlikning shimoli-sharqiy hududlari uchun Andijon hokimi Keldi Muhammadxon bilan jiddiy kurash olib borishiga to‘g‘ri keldi. Ular o‘rtasida to‘rt marotaba harbiy to‘qnashuvlar bo‘lib, ularning dastlabkisi, ya’ni, 1600-yilgi jangda ashtarxoniylar ustunlik qilgan bo‘lsa-da¹⁹, 1602 va 1603-yildagi urushlarda Keldi Muhammadxonning qo‘li baland kelgan²⁰. Buning natijasida 1602–1604-yillarda Keldi Muhammadxonning qo‘l ostida Farg‘ona vodiysi Xo‘jand hamda Toshkent hududlari birlashtirilib, Suyunchxojaxon mulklari qayta tiklandi. Keyinchalik Samarqand qamali vaqtida Keldi Muhammadxon olgan jarohatlari oqibatida vafot etadi. Uning o‘g‘li Abul Muhammad sulton qo‘lida faqatgina Andijon hamda Axxi hududlarigina qoldi. 1604-yilda Boqi Muhammadxonning Farg‘onaga qilgan yurishi Xo‘jand yaqinida tomonlarning sulh tuzishi bilan yakuniga yetib, Abul Muhammad sulton ashtarxoniylarning oliy hokimiyatini tan oldi²¹. Shunday qilib, rasman 1604-yilda Farg‘ona vodiysida ashtarxoniylar hokimiyati o‘rnatildi.

Boqi Muhammadxon vafot etgach, taxtga uning ukasi Vali Muhammadxon (1605-1611 yillar) o‘tirgan. Uning xonlik davri asosan, jiyarlari Imomqulixon va Nadr Muhammadxonga qarshi kurashlarda o‘tganligi natijasida Abul Muhammad sulton 1016/1607–1608-yildan deyarli mustaqil siyosat yurita boshlaydi. U ashtarxoniylarga qarshi kurashda, asosan, qozoq xonlariga tayanishga harakat qildi.

Bobning “Imomqulixonning qozoq xonlari bilan munosabatlari va unda Farg‘ona vodiysining tutgan o‘rni” deb nomlangan ikkinchi paragrafida XVII asrning 20-yillarida sodir bo‘lgan voqealar tadqiq qilingan. Jumladan, Imomqulixon davrida Buxoro xonligi siyosiy jihatdan mustahkamlana boshlaydi. U dastlab, Dashti Qipchoqqa harbiy yurishlar qilib, Eshimxon va Abulay sulton kabi qozoq xonlarini mag‘lub etgan. Ammo siyosiy ustunlik to‘la Buxoro xoniga o‘tib ketishini istamagan Andijon hokimi Abul Muhammad sulton o‘zining ittifoqchilari hisoblangan qozoq xonlariga yordam berish maqsadida Xo‘jandga yurish qilgan²². Imomqulixon qozoq xonlarini to‘la mag‘lubiyatga uchrashini kutmay, darhol Xo‘jandni himoya qilish uchun ortga qaytib, Andijon lashkarini tor-mor etgan. Ashtarxoniylarning 1021/1612–1613-yilgi harbiy yurishi shu tariqa yakun topgan. Mazkur harbiy yurish katta hududlarda olib borilganligi, ko‘chmanchilar bilan uzoq vaqt noqulay hududda urush olib borishning qiyinligi, janubiy sarhadlarning to‘la mustahkam emasligi, qo‘shin ta‘minoti bilan bog‘liq muammolarning mavjudligi bois qo‘yilgan maqsadga to‘la erisha olmagan.

Farg‘ona vodiysini egallash uchun qilingan ikkinchi yurish 1022/1613–1614-yilda bo‘lib o‘tgan. Dastlab, O‘ratepa, Toshkent, Xovosdagi ko‘chmanchi qozoq, qalmoq, qirg‘iz qabilalariga kuchli zarba berilib, ular xonlik chegarasidan haydab chiqarilgan²³. Ittifoqchilarsiz qolgan Farg‘ona hokimi Marg‘ilon va Andijondagi janglarda mag‘lub bo‘lib, sulh so‘rashga majbur bo‘lgan. Bu vaqtda Vali

¹⁹ ... بحر الاسرار. – B. 62a.

²⁰ Мухаммадёр ибн Араб Қатаған. Мусаххир ал-билод. ... – Б. 173; Ahmad b. Shams al-Dīn. Tārīkh-i miftāh al-qulūb. ... – B. 558a-559b.

²¹ ... بحر الاسرار. – B. 74b.

²² ... بحر الاسرار. – B. 103a; The sea of chronicles (Muḥīṭ al-tavārīkh). ... – P. 146.

²³ ... امام قلی خان نامه. – B. 114a-115b; ... بحر الاسرار. – B. 104b.

Muhammadxonning o'g'li Rustam sulton safaviylar ko'magida Balxga hujum qilganligi ashtarxoniylarni Abul Muhammad sulton bilan sulh tuzishga olib kelgan. Farg'ona vodiysida Abul Muhammad sulton hokimligi saqlangan holda ikkinchi bor Buxoro xonligi tarkibiga qo'shib olindi. Mazkur sulh shartnomasi Imomqulixonni Keldi Muhammadxonning qizi Sohibjamolxonimga uylanishi orqali mustahkamlandi²⁴. Buxoro xoni shimoli-sharqiy hududlarni bevosita emas, balki qozoq va shayboniylar orqali boshqarishni afzal bilishini xonlikning bu vaqtda siyosiy jihatdan u qadar qudratli emasligi bilan izohlash mumkin.

1617-yil Abul Muhammad sulton yana qozoq sultonlari bilan yaqinlashib, ulardan birining qiziga ham uylangan. Ammo qozoq sultonlari Buxoro xoniga yoqish maqsadida vodiya bostirib kirishib, Abul Muhammad sultonni o'ldirishgan²⁵.

Qozoq sultonlarining Farg'ona vodiysidagi hokimiyatiga barham berish uchun Imomqulixon uchinchisi bor Nadr devonbegi tog'oyi va Toshkent hokimi Tursunxon boshchiligida qo'shin yubordi. 1619-yil Buxoro-Toshkent qo'shinlarining Marg'ilonga kuchli zarba berishi oqibatida Nazar sulton mag'lubiyatga uchrab, Ulug' tog' tomon qochib ketgan²⁶. Oqibatda, boshqa qozoq sultonlari Andijonni jangsiz tashlab, O'sh va O'zganga chekinishgan. Keyinchalik bu hududlar ham ittifoqchilar tomonidan egallandi. Shu tariqa Farg'ona vodiysi uchinchisi bor Buxoro xonligi tarkibiga qo'shib olingan.

Imomqulixon Farg'ona vodiysi boshqaruvini Buxoro xonining xizmatiga kirgan Abulay sultonga berib, uning qizini nikohiga olgan. Bu Buxoro xoni uchun hudud hokimlari bilan bog'liq ikkinchi nikoh ekanligidan kelib chiqib aytish mumkinki, Imomqulixon mamlakatning sharqiy hududlarini boshqarishda o'ziga xos diplomatik yo'l tutgan. Keyinchalik Toshkent hokimi Tursunxon mustaqil siyosat olib borishga intilishi Buxoro bilan navbatdagi urushni keltirib chiqargan. 1621–1622-yillarda bo'lib o'tgan ikki jang oqibatida Imomqulixon mag'lubiyatga uchraydi²⁷. Shohruxiya yaqinida sodir bo'lgan ikkinchi jangda Andijon hokimi Abulay sulton ham ishtirok etgan. Ammo u urush boshlanishidan avval janggohni tark etishi Buxoro qo'shinlarini mag'lubiyatga uchrashiga sabab bo'ldi.

Muttasil g'alabalardan ruhlangan va asosiy raqobatchisi Eshimxon bilan munosabatlarini ijobiy hal qilgan Tursunxon qo'l ostidagi hududlarni kengaytirish uchun Farg'ona vodiysi tomon yurish qilgan.

Imomqulixon Andijon hokimiga yordam berish maqsadida butun xonlik qo'shinini safarbar etgan²⁸. 1624-yil Namangan yaqinidagi Karahnon jangida ashtarxoniylar qo'shini uyushqoqlik bilan harakat qilmaganliklari oqibatida mag'lubiyatga uchrab, Chust qal'asiga chekinishga majbur bo'lishdi. Biroq, ushbu qal'ani qamal qilish esa qozoq sultonlari uchun omadli kechmadi. Oradan ikki oy

²⁴ ... امام قلی خان نامه. – B. 122a.

²⁵ ... امام قلی خان نامه. – B. 131b-132b; Абусейтова М.Х., Баранова Ю.Г. Письменные источники по истории и культуре Казахстана и Центральной Азии в XIII-XVIII вв. ... – С. 233.

²⁶ ... امام قلی خان نامه. – B. 136b-137b.

²⁷ Eskandar Beg Monshi. History of Shax Abbas the Great. Volume II. ... – P. 1184; İsgəndər bəy Münşi Türkmən. Dünyanı bəzəyən Abbasın tarixi, 2014. ... – S. 1711; Сборник князя Хилкова. ... – С. 421-422; محمود بن ولی. بحر الاسرار. ... – B. 106b; ... امام قلی خان نامه. – B. 138a-139b, 145b.

²⁸ ... محمود بن ولی. بحر الاسرار. – B. 108b.

o'tib, qozoq lashkari bu safar Murod sulton boshchiligida qaytadan hujumga o'tgan. Sang qal'asidagi janglar oqibatida qozoq sultoni o'z maqsadiga yeta olmay, Toshkentga qaytib ketdi²⁹. Shu tariqa qozoqlarning vodiya qilgan ikki hujumi natijasiz yakun topdi.

Tadqiqotning uchinchi bobi **“Farg‘ona vodiysida ashtarxoniyalar hukmronligining zaiflashuvi”** deb atalgan. Uning “Imomqulixon hukmronligining so‘nggi yillarida Farg‘ona vodiysidagi vaziyat” deb nomlanuvchi paragrafida XVII asrning 40-yillarigacha bo‘lgan siyosiy jarayonlar, Andijon sodir bo‘lgan yirik isyon haqidagi ma’lumotlar tahlil etilgan.

Toshkent hokimi Tursunxon janubi-g‘arbiy tomondan Imomqulixon, sharqiy tarafdin Abulay sulton, shimol tomondan esa Eshimxon singari o‘ziga qarshi kayfiyatdagi siyosiy kuchlar qurshoviga tushib qoldi. Garchi Tursunxon Eshimxon bilan munosabatlarini yaxshilab olgan bo‘lsa-da, 1624-yil omadsiz kechgan Farg‘ona yurishidan so‘ng ikki qozoq sulton orasidagi aloqalarga biroz sovuqchilik tushgan edi. Oqibatda, 1036/1626–1627-yil ular o‘rtasida urush boshlangan. Mazkur kurashdan unumli foydalanish maqsadida Imomqulixon Andijon, Xo‘jand va O‘ratepa hokimlariga Tursunxon qo‘l ostidagi hududlarga hujum qilish buyrug‘ini bergan³⁰. Birlashgan hokimlarning hujumlari natijasida Piskent va Shohruxiya qal'alari egallandi. Keyinchalik hujumga Jizzax hokimi Beko‘g‘lining qo‘shilishi va Eshimxonning shaxsan o‘zi Toshkentga qarab yo‘l olishi Tursunxonni qiyin vaziyatga tushirib qo‘ygan. Oradan ko‘p o‘tmay Tursunxon o‘zining yaqinlari tomonidan o‘ldirildi. Qozoq xonligining oliy hukmdoriga aylangan Eshimxon esa Toshkent va Turkistonni boshqarsa-da Imomqulixonga bo‘ysungan. Bunday vaziyat Abulay sultonga ma‘qul kelmagan bo‘lsa-da, unda Eshimxon yoki Imomqulixonga qarshi chiqish uchun yetarli kuch yo‘q edi. 1628-yilda Eshimxon ham vafot etgach, u Toshkentni egallab, o‘z nomiga xutba o‘qitdi³¹. Qisqa muddat Toshkent va Farg‘ona mulklari birlashtirgan Abulay sultonga qarshi Imomqulixon katta qo‘shin yuborgan. Qoymos (Qaymas – قايماس) mavzesida bo‘lib o‘tgan jangda Abulay sulton mag‘lubiyatga uchrab, Yorkend xonligi tomon qochib ketgan. Shunday qilib, Abulay sultonning Andijon hokimi sifatida faoliyatining birinchi bosqichi (1619-1628) yakuniga yetgan.

Abulay sulton isyoni bostrilgach, Imomqulixon Toshkentni Boqi Muhammadxonning o‘g‘li Abdulla sultonga, Andijon boshqaruvini esa farzandi Pir Muhammad sultonga topshirgan³². Ushbu farzandi Abulay sultonning nabirasi hisoblanganligi uchun Buxoro xoni mazkur sultonni vodiya hokimligiga qo‘ygan edi.

Ko‘p o‘tmay Abulay sulton Buxoro xoni tomonidan kechirilgach, nabirasi bilan birgalikda vodiyni boshqargan. 1040/1630–1631-yili Pir Muhammad sulton kasallanib vafot etgandan so‘ng Abulay sulton Imomqulixonga qarshi chiqishni boshlaydi. Tez orada asir tushgach, Buxoroga jo‘natilgan vaqt yo‘lda o‘ldirilgan³³.

²⁹ ... بحر الاسرار. ولي. محمود بن ولي. – B. 109b; Burton A. The Bukharans. ... – P. 169.

³⁰ ... بحر الاسرار. ولي. محمود بن ولي. – B. 110a; Материалы по истории Средней и Центральной Азии X–XIX вв. ... – С. 247-248.

³¹ Атыгаев Н. Казахское ханство: очерки внешнеполитической истории XV–XVII веков. ... – С. 130.

³² ... بحر الاسرار. ولي. محمود بن ولي. – B. 112a-112b.

³³ ... بحر الاسرار. ولي. محمود بن ولي. – B. 113b-115a; Абулаббос Мухаммад Толиб. Матлаб ут-толибин. ... – Б. 202-203.

Mazkur voqealardan so‘ng Farg‘ona mulkini qisqa muddat Imomqulixonning jiyani Muhammadyor sulton otalig‘i Ollohberdiy buyrak bilan boshqargan. Ammo mahalliy xalq vakillarining iltimosi bilan Buxoro xoni Fozilxoja ibn Jonixoja Andijon hokimi etib tayinlagan³⁴. O‘zbek davlatchiligi tarixida kamdan-kam uchraydigan mazkur holat alohida e‘tiborga molikdir. Xususan, ashtarxoniylar sulolasi hokimiyatga kelgandan beri, Farg‘ona vodiysini egallash, sarhadlarni mustahkamlash kabi masalalarda qiyinchilikka uchrayotgan va buning oqibatida mahalliy aholi ham ko‘p zarar ko‘rayotgan edi. Shuning uchun ham ular vodiyni mahalliy aholi vakillaridan biri boshqarishi samarali bo‘lishiga Buxoro xonini ishontira olishdi.

Fozilxojaning (1632–1635 yillar) xalqchil siyosati ayrim amaldorlarga ma‘qul kelmagach, ular yana shayboniy sultonlarni izlay boshlashgan. Qozoqlardan yordam olish uchun O‘trorga kelgan shayboniyzoda o‘zining maqsadiga erisha olmagan bo‘lsa-da, bu haqida xabar topgan Andijon va Toshkentdagi muxoliflar isyon boshlashgan. Mazkur yirik isyonni uch bosqichga bo‘lish mumkin. Jumladan, birinchi bosqich 1635-yilda bo‘lib, isyonchilar tomonidan Fozilxoja va uning oilasini keyin esa Toshkent hokimi, Imomqulixonning o‘g‘li Iskandar sulton o‘ldirilgan³⁵. Voqealarning bunday kutilmagan tarzda kechishi, ayniqsa, Iskandar sultonning o‘ldirilishi Imomqulixonga qattiq ta‘sir qildi. Zudlik bilan Nazarbiy nayman boshchiligidagi qo‘shinni Andijon tomon yuborishga qaror qiladi. Amir Yalangto‘shbiy boshchiligidagi Balx qo‘shini ham Samarqandga yetib kelgan. Isyonchilarning Toshkentdagi faol harakatlari tufayli dastlabki janglar mazkur hududda kechdi³⁶.

Ikkinchi bosqich 1635-yilning oxiri 1636-yil boshlarida bo‘lib o‘tib, ashtarxoniylar Sirdaryo bo‘ylari va Dashti Qipchoq ichkarisigacha kirib borishdi. Sayram va Talas vodiysidagi g‘alabalardan keyin Buxoro qo‘shini Yulduz mavzesigacha yetib bordi. Shundan so‘ng qozoqlar to‘la bo‘ysunganliklarini, avvalgidek Buxoro xoniga xiroj to‘lash majburiyatini olganlar³⁷. Shu o‘rinda ayrim manba va adabiyotlarda uchraydigan “Toshkent qirg‘ini” masalasiga ham oydinlik kiritish lozim. Hoji Mir Salimning “Silsilat us-salotin” va Muhammad Yusuf munshiyning “Muqimxon tarixi” asarida 1613-yil Toshkent xalqi tomonidan Iskandar sulton o‘ldirgach, farzandini xuni uchun Imomqulixon toshkentliklarni qattiq jazolaganligi ta‘kidlangan³⁸. Mahmud ibn Vali esa yuqoridagi muarrixlardan farqli ravishda aslida voqea Sayramda 1635-yil bo‘lganligini qayd etgan³⁹. Yuqoridagi tarixchilarning yashagan davri, asarlarining qiyosiy tahlilidan kelib chiqib xulosa qilinsa Mahmud ibn Valining bergan ma‘lumotlari haqiqatga yaqin.

Uchinchi bosqich 1636–1637-yillarda bo‘lib, Buxoro-Balx lashkari isyon markazi – Farg‘ona vodiysi tomon yo‘l olgan. Dastlab, Axsi qal‘asidagilarga yordam berish uchun Yalangto‘shbiy otaliq boshchiligida to‘rt ming kishilik

³⁴ ... بحر الاسرار. ... – محمود بن ولي. B. 117b-118a.

³⁵ ... بحر الاسرار. ... – محمود بن ولي. B. 118b-119a; Burton A. The Bukharans. ... – P. 187.

³⁶ ... بحر الاسرار. ... – محمود بن ولي. B. 119b-123a.

³⁷ O‘sha manba. – B. 122a.

³⁸ 185a-185b. ... – حاجي مير محمد سليم. سلسلة السلاطين. ... – C. 87-88.

³⁹ ... بحر الاسرار. ... – محمود بن ولي. B. 121b; Burton A. The Bukharans. ... – P. 189.

qo'shin zudlik bilan yuborilib, ular qamaldan ozod etilgan. Mazkur qal'a mudofaasida Boqibiy yuz, Do'staka yuz, Shofi chuhra og'asi do'rmonlar alohida jasorat ko'rsatishgan⁴⁰. Isyon boshliqlari Eshim otaliq, Ali Murod kelechi, Asad devonbegi do'rmonlar vaziyat qo'ldan ketganligini anglashgach, Yalangto'shbiy otaliq bilan kelishish uchun ikki marotaba elchi yuborganlar. Ammo muzokaralar yetarli samara bermaydi. Buxoro xoni otaliqqa yordam berish uchun jiyani Xusrav sulton boshchiligida katta qo'shinni Marg'ilon tomonga yuborgan. Aysi tomondan Yalangto'shbiy otaliq, Marg'ilondan esa Xusrav sulton qilgan shiddatli hujum natijasida Andijon egallandi. Isyonchilar qo'lga olinib, Buxoroga yuborilgan va qattiq jazolangan⁴¹.

So'nggi bobning ikkinchi paragrafi "Farg'ona vodiysida mustaqil davlatchilik uchun tarixiy sharoitning vujudga kelishi" deb nomlanib, unda XVII asrning ikkinchi yarmida sodir bo'lgan siyosiy jarayonlar tadqiq qilingan. Jumladan, Imomqulixon hukmronligining so'nggi yillarida ko'zini ko'rmay qolishi oqibatida taxtni ukasi Nadr Muhammadxonga topshiradi. 1642-yil bahorida Andijon amirlari qirg'izlar hujumidan Nadr Muhammadxonga shikoyat qilishgan. Zudlik bilan chora ko'rish maqsadida Nadr Muhammadxon Balxdan Abdurahmon otaliqni chaqirib, Andijon tomon yuborgan. Otaliq avval Toshkentda qozoq xoni Jahongirxon bilan ittifoq tuzib, uning qizi Qozoqxonimni valiahd shahzoda Abdulazizxoniga nikohlab bergan. Buxoro-Qozoq lashkari qirg'izlarga kuchli zarba berib, ularning ko'plab biylarini o'ldirishgan⁴². Mazkur g'alabadan so'ng Nadr Muhammadxon Abdurahmon otaliqni Andijon hokimligida qoldirish orqali hududda o'zining mavqeyini mustahkamlab olgan. 1635-yilda Markaziy Osiyoda ko'chmanchilar asos solgan Qalmoq (Jung'or) xonligining vujudga kelishi butun mintaqa xalqlarining siyosiy ahvoriga salbiy ta'sir qildi. Ularning Yettisuv va Sharqiy Turkistonga hujumlari qozoq va qirg'iz qabilalarini Buxoro xonligi hududlari tomon siljishiga olib kelgan. Bu esa chegara hududlar, jumladan Farg'ona vodiysida ham vaziyatni og'irlashtirgan.

Nadr Muhammadxonning davlat boshqaruvidagi siyosati buxorolik amaldorlarga ma'qul kelmagan. Oqibatda Buxoro xoniga qarshi 1645-yil Xo'jandda Boqibiy yuz qo'zg'oloni yuz bergan. Ushbu isyonni bostirish uchun qilingan barcha harakatlar besamar yakunlanib, Nadr Muhammadxon oliy hokimiyatdan ayriladi. Uning o'rniga Abdulazizxon Buxoro xoni deb e'lon qilindi. Boqibiy yuz esa Xo'jand hamda O'ratepa hokimligiga tayinlandi. Ushbu voqea Farg'ona vodiysi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, hududda yuzlarning kuchayishi, amalda hukmronlik ularning qo'lga o'tishini anglatardi. Vodiya oid keyingi voqealarda deyarli Buxoro xonlarining ta'siri yo'qoldi. Ushbu holatni keyinchalik Yorkend xoni Abdullaxonning hujumlari misolida yaqqol ko'rish mumkin.

Yorkend xoni Abdullaxon (1636-1667 yillar) Buxoro-Xorazm va Buxoro-Hindiston munosabatlari keskinlashganidan foydalanib, Andijonni egallash uchun to'rt marotaba yurish qilgan.

⁴⁰ B. 122b. – محمود بن ولي. بحر الاسرار. ...

⁴¹ O'sha manba. – B. 123a.

⁴² حاجی میر محمد سلیم، سلسلة السلاطين. ... – ص. 209a.

Dastlabki harbiy yurish, tahminan, 1641–1642-yillarda bo‘lib, unda Yorkend qo‘shini O‘shni egallash va uni talon-taroj qilish bilan kifoyalangan⁴³.

Ikkinchi yurish 1653-yilda bo‘lib o‘tgan. Bu safar Abdullaxon qo‘l ostidagi qirq ming kishilik qo‘shin bilan O‘sh orqali Andijon shahriga yetib kelgan⁴⁴. Shahar Xoqon hamda Mirza darvozasidan qilingan hujumlar oqibatida egallanib, uch kun talanadi. Shu yil Andijon Yorkend xonligi tarkibiga qo‘shib olingan.

Uchinchi yurish 1654-yil amalga oshirildi. Abdullaxon ortga qaytganidan ko‘p o‘tmay Andijon aholisi isyon ko‘targan. Bu esa, xonning uchinchi marotaba yurish qilishiga sabab bo‘ldi. “Tarixi Koshg‘ar” ga ko‘ra, mazkur yurish, ikkinchi hujumdan bir yil o‘tgandan so‘ng bo‘lganligi ta‘kidlanadi⁴⁵. Abdullaxon qo‘shinlariga Yo‘lbarsxon boshliq Koshg‘ar hamda Sotimbek rahbarligidagi Yangi Hisor qo‘shinlari va qirg‘izlar qo‘shildi⁴⁶. O‘tgan yilgi xunrezliklardan xulosa chiqargan andijonliklar bu safar shaharni qattiq himoya qilishgan. Chorasiz qolgan Abdullaxon ortga qaytishga majbur bo‘lgan.

Abdulazixonning Yorkend xonligi bilan olib borgan diplomatik aloqalar o‘rnatishga harakat qilib, ma‘lum natijaga ham erishdi. Chunki ikki xonlik qalmoq va qirg‘izlar masalasida hamfikir bo‘lishganligi uchun oz bo‘lsa-da iliqlik paydo bo‘lgan. Lekin 1658-yil Abdushukurbek boshchiligidagi o‘ttiz sakkiz ming kishilik Buxoro qo‘shinlari Talas daryosida qalmoqlar bilan bo‘lgan jangda mag‘lub bo‘lishi sharqiy mintaqalarda Buxoroning mavqeyi yanada kuchsizlanishiga olib keldi⁴⁷. Ayni holat Abdullaxonga Andijon tomon to‘rtinchi marotaba yurish qilish imkoniyatini yaratgan.

1667-yilda Abdullaxonni Farg‘ona vodiysi tomon to‘rtinchi yurishi boshlangan. Qo‘shin Sarig‘yoz mavzesiga kelgan vaqt farzandi Nuriddinxon to‘satdan kasallanib vafot etgan. Kutilmagan bu voqea esa Abdullaxonni ortga qaytishga majbur qildi⁴⁸.

Shunday qilib, Yorkend xonligining Andijonni qo‘shib olish uchun qilgan to‘rt yurishining faqatgina ikkinchi hamda uchinchisi bevosita shahar atrofidagi janglar bilan kechdi. Bundan ikkinchi yurish omadli yakunlanib, shahar vaqtincha Yorkend xonligiga qo‘shib olindi. Mazkur qaramlik bir yilga ham cho‘zilmay, ozodlikka erishganligi uchun uchinchi yurish tashkil etildi. Olib borilgan janglar natijasida andijonliklar o‘z mustaqilligini saqlab qolishdi. So‘nggi yurish esa, dastlabkisi singari oxiriga yetmadi.

Vodiyning keyingi davriga oid bevosita ma‘lumotlar juda kamchilikni tashkil qiladi. Qo‘qon xonligida yaratilgan manbalarda esa vodiyning XVII asrga oid ma‘lumotlari “Oltin beshik” rivoyatidagi voqealar bilan bayon qilingan.

Subhonqulixon va Ubaydullaxon II davrida o‘zbek urug‘lari o‘rtasidagi nizolarning avj olishi, Xorazm va Balx bilan uzoq davom etgan kurashlar oqibatida

⁴³ Шах-Махмуд Чурас. Хроника. ... – С. 197; Караев О.К. Чагатайский улус. ... – С. 110.

⁴⁴ Шах-Махмуд Чурас. Хроника. ... – С. 202; Тарих-и Кашгар. ... – С. 93а.

⁴⁵ Тарих-и Кашгар. ... – С. 93а.

⁴⁶ Шах-Махмуд Чурас. Хроника. ... – С. 203; Караев О.К. Чагатайский улус. ... – С. 111.

⁴⁷ Моисеев В.А. Джунгарское ханство и казахи. ... – С. 48; Атыгаев Н. Казахское ханство: очерки внешнеполитической истории XV–XVII веков. ... – С. 137.

⁴⁸ Шах-Махмуд Чурас. Хроника. ... – С. 221; Караев О.К. Чагатайский улус. ... – С. 117; Çelik M.B. Yarkend hanlığı'nın siyasi tarihi. ... – S. 208-209.

xonlarning mavqeyini zaiflashib, amirlar ta'sirini oshishiga olib keldi. Xonlikning Samarqand, O'ratepa, Toshkent bilan bir qatorda Farg'ona vodiysida Muhammad Rahimbiy yuzning mavqeyi oshib, Buxoro xonligida otaliq mansabini egalladi⁴⁹. Uning 1707-yil vafot etishi esa, nafaqat, yuzlarning ta'sirini zaiflashuviga balki vodiya yangi xonlikning vujudga kelishiga olib keldi.

XULOSA

Ashtarxoniylar davrida Farg'ona vodiysida yuz bergan siyosiy jarayonlarni tarixiy manbalar hamda ilmiy adabiyotlar asosida chuqur o'rganish va tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalar chiqarildi:

1. Ashtarxoniylar sulolasi davrida Farg'ona vodiysi siyosiy hayotiga bag'ishlangan adabiyotlar tahlili shu kunga qadar bu borada yaxlit fundamental tadqiqotlar olib borilmagani hamda ushbu muammoni o'rganish bugungi kun tarixshunosligining dolzarb vazifalaridan biri ekanligini tasdiqlaydi.

2. Ashtarxoniylar hukmronligining ilk yillarida vodiya hukmronlik qilgan tarixiy shaxslar haqidagi ilmiy jamoatchilikda bir-birini rad etuvchi qarashlar mavjud bo'lib, ularda, asosan, mazkur hukmdorlarni qozoq xonlari deb ta'kidlash ustunlik qilganini ko'rish mumkin. Ushbu faraz esa, vodiyni uzoq vaqt Qozoq xonligi tarkibida bo'lgan degan ilmiy xulosani keltirib chiqargan.

3. Manbalardagi ma'lumotlar tahliliga ko'ra, Buxoro, Balx, Boburiylar saltanati va Eronda yozilgan manbalarda Farg'ona vodiysining XVII asrning birinchi yarmiga tegishli voqealar salmoqi yuqori bo'lsa, ikkinchi yarmiga oid ma'lumotlar juda kamchilikni tashkil qiladi. Ushbu holat markaziy hokimiyatning zaiflashuvi bilan bog'liq bo'lgan. Mazkur kamchilikni, ma'lum ma'noda, Yorkend xonligida bitilgan manbalar to'ldiradi. Shu bilan birga Qo'qon xonligi davrida yozilgan manbalardagi ma'lumotlar esa xonlarning hokimiyatini qonunlashtirish uchun tarixiy haqiqatdan chekinganligini ko'rsatadi.

4. Buxoro xonligida ashtarxoniylar sulolasi taxtga kelgach, turli hududlar qatori, Farg'ona vodiysida ularga qarshi keskin kurashlar bo'lib o'tgan. Vodiy hukmdorlari Keldi Muhammadxon va Abul Muhammad sultonlar o'zlarini shayboniy Suyunchxojaxon avlodlari hisoblashib, nafaqat vodiydagi mulklarni, balki, Buxoro taxtining qonuniy egasi sifatida ashtarxoniylarga qarshi qozoq va qirg'iz qabilalariga bilan ittifoqda kurashganlar. Aynan ko'chmanchi qabilalarga ko'proq tayanganliklari oqibatida ayrim manbalarda ularning shaxsi haqida noto'g'ri ma'lumotlar qayd etilishiga sabab bo'lgan.

5. Ashtarxoniylar uzoq vaqt Farg'ona vodiysini bevosita emas, balki shayboniy sultonlar va qozoq xonlari orqali bilvosita boshqarishga harakat qilganlar. Bunga sabab sifatida, Buxoro xonligi chegaradagi davlatlar bilan yaxshi munosabatda emasligi, amalda xukumat ikki markaz orqali boshqarilishi va vodiyni egallash, uni himoya qilish katta resurs va harbiy kuch talab qilinishi bilan izohlanadi.

6. Jung'orlarning siyosiy bosimi tufayli Yettisuvdagi ko'p sonli qozoq va qirg'iz qabilalari Sirdaryo bo'ylari, Sharqiy Turkiston va Farg'ona vodiysi tomon

⁴⁹ Мир Мухаммад Амини Бухари. Убайдулла-наме. ... – С. 35, 43.

ko'chishgan. Bu mazkur hududlarda jiddiy kurashlarni keltirib chiqargan. Ayniqsa, qozoq xonlari bilan munosabatlar nihoyatda keskin bo'lib, ular Farg'ona vodiysiga daxl ham qilganlar. Natijada, Imomqulixon Farg'ona vodiysini o'ziga maslakdosh bo'lgan qozoq xoni Abulay sultonga berish orqali idora qilgan.

7. Uzoq vaqt Farg'ona vodiysida shayboniy Suyunchxojaxon xonadoni vakillari hukmronlik qildi. Abdullaxon II tomonidan vodiy egallangach, mazkur xonadon vakillarini qo'llagan siyosiy guruhlar o'z mulklarining katta qismini yo'qota boshlagan. Bu esa, ashtarxoniylarga qarshi mazkur xonadon vakillari orqali va chegara hudud ekanligidan kelib chiqib, markaziy hokimiyatga nisbatan norozi kayfiyatdagi kuchlar isyon ko'tarilishiga sabab bo'lgan. Ushbu isyonlar XVII asrning 40-yillarida ham davom etgan.

8. Farg'ona vodiysi Imomqulixon davrida to'liq Buxoro xonligi tarkibiga qo'shib olingan. Hududda Pir Muhammad sulton, Muhammadyor sultonlarning qisqa hokimligidan so'ng, mahalliy xalq vakillarining iltimosiga ko'ra Fozilxo'ja ibn Jonibek xo'ja hokim qilib tayinlangan. Davlatchilik tarixida kam uchraydigan ushbu holat ham vodiy boshqaruvi nozik ekanligidan dalolat beradi.

9. 1635-yil butun xonlikni larzaga keltirgan "Andijon isyoni"da Imomqulixonning o'g'li Iskandar sulton, Andijon hokimi Fozilxo'ja va sobiq Yorkend xoni Ahmadxonlar vafot etdi. Mazkur isyonni bostirish uch bosqichda amalga oshirilib, Buxoro va Balx qo'shinlari safarbar etildi. Qo'zg'olon bostirilishi natijasida qozoqlar bilan tinchlikka erishilib, vodiydagi muxoliflarning katta qismi yo'q qilinadi.

10. Nadr Muhammadxon balxlik amirlarga tayanib, davlatni boshqarishi buxorolik amirlarga ma'qul kelmagan. Oqibatda, Xo'jandda Boqibiy yuz boshchiligida isyon ko'tarilib, uni Andijon aholisi ham qo'llab-quvvatlagan. Isyonni bostira olmagan Abdulazizxonning qo'zg'olonchilarning talabiga rozi bo'lishi oqibatida Buxoroda xon almashinuvi sodir bo'lgan yakunda otasini o'rniga taxtni egallashga majbur bo'lgan. Shundan so'ng, Buxoro xonlarining amalda Farg'ona vodiysidagi hukmronligi keskin pasayib, hududda yuz urug'i vakillarining nufuzi oshib ketgan.

11. XVII asrning ikkinchi yarmida Buxoro xonligi janubiy hamda g'arbiy chegaralardagi qaltis vaziyatlar tufayli sharqiy sarhadlarga bo'lgan e'tibori susaygan. Mazkur vaziyat esa, qirg'iz qabilalari bilan bir qatorda Yorkend xoni Abdullaxon uchun qo'l kelgan. Aynan uning bir necha harbiy yurishlari oqibatida O'sh hamda O'zgan butunlay, Andijon esa vaqtinchalik Buxoro xonligi tarkibidan chiqib ketgan. Ammo masofaning uzoqligi hamda qirg'iz qabilalari bilan uzoq davom etgan urushlar Yorkend xoniga mazkur muvaffaqiyatni mustahkamlash imkonini bermagan.

12. XVII asrning oxirlarida jung'orlar hujumi, qirg'iz qabilalarining vodiy tomon ko'chishi, Buxoro xonligining siyosiy zaiflashuvi, Farg'ona vodiysining amaldagi hokimi Muhammad Rahimbiy yuzning taxminan, 1707-yilda vafot etishi, dastlab, Chodak xojalarining, so'ng esa, minglar tomonidan Qo'qon xonligiga asos solinishi uchun tarixiy sharoit yaratdi.

Mazkur muammoni tadqiq etish yakuniga ko'ra, quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Farg‘ona vodiysining XVII asrga oid rasmiy-huquqiy hujjatlarini o‘rganish orqali mazkur davrda hokimlik qilgan noiblar nomi va davriga aniqlik kiritish lozim;

2. “Bahr ul-asror” va “Imomqulixonoma” asarlaridagi ma’lumotlar nafaqat Farg‘ona vodiysi tarixi, balki, Buxoro xonligining XVII asrning 40-yillariga qadar bo‘lgan ko‘plab siyosiy voqealarga aniqlik kiritishini hisobga olgan holda mazkur manbalarni tarjima qilib, nashr etish maqsadga muvofiq;

3. Farg‘ona vodiysi tarixini yorituvchi alohida ilmiy platforma yaratish zarur. Unga hududning barcha tarixiy bosqichlari qatori ashtarxoniyalar davri aks etgan hujjatli, tarixiy, badiiy ko‘rinishda yaratilgan interaktiv materiallar joylashtirish lozim;

4. O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun yaratiladigan turli o‘quv adabiyotlarning tegishli davrini mazkur tadqiqot materiallari asosida boyitish maqsadga muvofiq.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ PhD.03/31.03.2021.Tar.05.05 ПРИ
ФЕРГАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

ФЕРГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

МУСАЕВ АЗИЗБЕК БАХРИДИНОВИЧ

**АНАЛИЗ ПОЛИТИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ В
ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ В ПЕРИОД АШТАРХАНИДОВ**

07.00.01 – История Узбекистана

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PHD) ПО ИСТОРИЧЕСКИ НАУКАМ**

Фергана – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером В 2024.2.PhD/Tar1234.

Диссертация выполнена в Ферганском государственном университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на веб-странице Научного совета (www.fdu.uz) и на Информационно-образовательном портале Ziyonet (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Усмонов Бахриддин Ахмедович
доктор исторических наук, профессор

Официальные оппоненты :

Эркузиев Анваржон Ашурович
кандидат исторических наук, доцент

Аминов Бобур Бомуродович
доктор исторических наук, профессор

Ведущая организация :

Андижанский государственный университет

Защита диссертации состоится « 30 » 11 2024 г. в 9⁰⁰ часов на заседании Научного совета по присуждению ученых степеней PhD.03/31.03.2021.Tar.05.05 при Ферганском государственном университете (Адрес: город Фергана, улица Мураббийлар, дом №19, Ферганский государственный университет, Факультет истории, 2-этаж, зал совещаний. Тел.: (99873) 244-44-02; факс: (99873) 244-44-93; e-mail: fardu_info@umail.uz, Ферганский государственный университет).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ферганского государственного университета (зарегистрирована за № 425). (Адрес: 150100, город Фергана, улица Мураббийлар, дом №19. Здание ИРЦ). Тел.: (99873) 244-44-94).

Автореферат диссертации разослан « 18 » 11 2024 года.
(реестр протокола рассылки № 37 от « 18 » 11 2024 года).



Н.Б.Дехканов
Заместитель председателя Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор политических наук, профессор

Н.О.Алимова
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии по историческим наукам, доцент

М.Г.Абдуллаев
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор исторических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В процессе глобализации и интеграции в мире политические, социальные, экономические и культурные связи между регионами усиливаются в различных направлениях, что делает обеспечение сотрудничества и устойчивого развития государств одними из актуальных вопросов на повестке дня. Развитие и укрепление взаимного сотрудничества между государствами и регионами становится одной из существенных особенностей развития. Необходимость дальнейшего развития процессов взаимной интеграции требует обращения к историческим корням политических изменений в регионах и их исследования на основе современных методологий.

Масштабные исследования по истории государственности проводятся во многих ведущих высших учебных заведениях мира и научно-исследовательских центрах. В частности, наряду с различными периодами истории Центральной Азии, исследования по правлению династии аштарханидов в Бухарском ханстве проводятся в основном научными центрами Японии, России, Европы и США⁵⁰. В этих научных исследованиях освещены вопросы государственности, военного искусства, изменений в социально-экономической и культурной сферах, этнических процессов в ханстве и многие другие. На сегодняшний день, когда судьба и будущее человечества тесно связаны с политикой государств возникает необходимость обширных исследований в этой области. В связи с этим важное значение имеет понимание и исследование процессов возникновения, укрепления и кризиса правивших династий в контексте исторических периодов, регионов и отдельных территорий.

Изучение богатой истории, культуры и традиций региона, их сохранение, извлечение уроков определены как одна из важных задач в реализации масштабных реформ в Узбекистане. По этой причине является актуальным изучение государств, сыгравших важную роль в истории Центральной Азии, управлявших ими династий и политических процессов, происходивших в них. Как отметил Президент Ш.М.Мирзиёев, «Национальную историю следует создавать с национальным духом. В противном случае это не будет иметь воспитательного эффекта. Нам необходимо научить нашу молодежь извлекать уроки из истории, делать выводы, вооружать ее историческими знаниями и историческим мышлением»⁵¹. За последние годы произошли положительные изменения в

⁵⁰ Университет Цукуба: www.tsukuba.ac.jp/en, Институт восточных рукописей Российской Академии наук (ИВ РАН): www.ivran.ru, Институт ирановедения Австрийской Академии наук: www.oeaw.ac.at, Лондонский университет африканских и ближневосточных исследований (SOAS): www.soas.ac.uk, Факультет изучения Ближнего Востока и Азии Кембриджского университета (Faculty of Asian and Middle Eastern Studies): www.ames.cam.ac.uk, Факультет изучения Ближнего Востока и Азии Оксфордского университета (Faculty of Asian and Middle Eastern studies): www.orinst.ox.ac.uk, Изучение Центральной Азии в Блумингтонском университете Индианы (Central Eurasian studies): <https://ceus.indiana.edu>.

⁵¹ Мирзиёев Ш.М. Жамият ҳаётининг танаси иктисодиёт бўлса, унинг жони ва руҳи маънавиятдир. 19.01.2021. <https://president.uz/uz/lists/view/4089>.

исследовании истории Ферганской долины – важного геополитического и геостратегического региона Узбекистана, анализе ее особенностей и доведении их до научного сообщества нашей страны и мира. Однако наряду с некоторыми регионами Бухарского ханства (периода правления династии Аштарханидов), политические процессы, происходившие в Ферганской долине, остаются вне поля зрения исследователей. Такое положение требует изучения этих процессов в логической последовательности, более эффективно используя исторические источники, и соответствующих научных выводов.

Данная диссертация в определенной степени может способствовать реализации задач, обозначенных в Указах Президента Республики Узбекистан №УП-6165 от 9 февраля 2021 года «О мерах по дальнейшему развитию внутреннего и паломнического туризма в Республике Узбекистан», №УП-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 – 2026 годы», Постановлениях Кабинета Министров Республики Узбекистан №831 от 16 октября 2017 года «Об учреждении памятного комплекса по охране и исследованию объекта археологического наследия «Ахсикент» в Туракурганском районе Наманганской области», №1001 от 14 декабря 2019 года «О дополнительных мерах по социально-экономическому развитию городов Маргилан и Коканда в Ферганской области на 2020 – 2024 годы» и других нормативно-правовых документах, относящихся к этой сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики Узбекистан. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и техники республики I. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-нравственном развитии информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. Политические, социальные и экономические аспекты выбранной темы в определенной степени изучались в исследованиях по истории Центральной Азии XVII – начала XVIII веков. Они были проанализированы, разделив на 3 группы по региональному и периодическому принципам. В частности, первую группу составляют произведения, созданные в период Российской империи и советский период, вторую – исследования, проведенные в зарубежных странах, а третью – научные исследования периода независимости.

Историографический анализ показывает, что отдельных исследований по политической истории Ферганской долины эпохи аштарханидов не проводилось. Это свидетельствует о том, что изучение данного вопроса является важной задачей с научно-теоретической точки зрения (историография вопроса подробно освещена в первом параграфе главы I).

Взаимосвязанность темы исследования с планом научно-исследовательских работ высшего учебного заведения, в котором была выполнена диссертация. Диссертационное исследование выполнено в

соответствии с планом научных исследований Ферганского государственного университета в рамках темы «Актуальные проблемы истории Ферганской долины» (№9, ФГУ НС 2019.30.05).

Цель исследования состоит в том, чтобы изучить тенденции развития политических процессов в Ферганской долине в период правления аштарханидов и повлиявшие на них факторы.

Задачи исследования:

проанализировать приход к власти в Бухарском ханстве династии аштарханидов и влияние этого процесса на Ферганскую долину;

изучить процесс борьбы между Бакимухаммадханом и правителем Андижана Келдимухаммадханом;

посредством анализа исторических источников и сведений в научной литературе внести ясность во взгляды на личность таких исторических деятелей, как Келдимухаммадхан и Абулмухаммад-султан, правивших в Ферганской долине;

изучить процесс присоединения аштарханидами Ферганской долины к Бухарскому ханству;

проанализировать личность и деятельность правителей, а также особенности Ферганского владения;

выявить значение и роль Ферганской долины в развитии военно-политических, дипломатических отношений между Бухарско-Казахским, Бухарско-Яркендским ханствами;

описать влияние кочевых племен, проживавших на границах Ферганской долины, на политическую жизнь региона;

разработать предложения и рекомендации, основанные на научных выводах по результатам изучения истории политических процессов в Ферганской долине в период аштарханидов.

Объектом исследования являются политические процессы, происходившие в Ферганской долине в период правления аштарханидов.

Предметом исследования является анализ политической жизни Ферганской долины в конце XVI – начале XVIII века, а также внутренние и внешние факторы, влиявшие на нее.

Методы исследования. В процессе исследования использовались принципы объективности, беспристрастности, последовательности, такие методы, как сравнительно-исторический анализ, содержательный анализ, систематизация, проблемно-хронологический, микроистория.

Научная новизна исследования заключается в следующем:

на основе сравнительного анализа сведений письменных источников и надгробных надписей внесена ясность в личности правителей Ферганской долины Келдимухаммадхана и Абулмухаммад-султана, и обосновано, что они являются не казахскими султанами, а последними представителями рода шейбанида Суюнчходжахана;

научно обосновано, что включение Ферганской долины в состав государства Аштарханидов происходило в четыре этапа, так как зависело от результата борьбы последних представителей рода Суюнчходжахана за

сохранение своей власти и противостояния бухарских ханов с казахскими султанами за северо-восточные территории Мавераннахра (первый этап – период борьбы правителя Ферганы Келдимухаммадхана за восстановление династии Шейбанидов (1599-1604 гг.), второй этап – официальное установление власти аштарханидов в Фергане при сохранении фактической власти Шейбанидов (1604-1614 гг.), третий этап – конец правления династии Шейбанидов в долине (1614-1619 гг.), четвертый этап – конец правления султана Аблая в Фергане и включение долины в состав Бухарского ханства (1619-1631 гг.);

внесена ясность в сведения о личности и правлении ферганских правителей Келдимухаммадхана, Абулмухаммад-султана, Аблай-султана, Пирмухаммад-султана, Мухаммадьяр-султана, Фозилходжи, Бокибия Юза (Ахси), Бахрам-султана (Ахси), Абдурахмана аталыка (Андижана);

на основе исторических источников определено, что хан Яркенда Абдуллахан совершил четыре военных похода, второй и третий из которых проходили непосредственно в окрестностях Андижана, что первый поход в долину ограничился грабежом восточных районов региона, а последний остался незавершенным из-за внезапной смерти сына Абдуллахана Нуриддина.

Практические результаты исследования заключаются в следующем:

впервые были введены в научный оборот в узбекской историографии сведения о политических процессах в Ферганской долине из таких источников, как «Тарихи мифтах уль-кулуб», «Имамкулиханнаме», «Бахр уль-асрор», которые имеют важное значение для темы исследования;

идентифицированы факты и даты политических событий, происходивших в Фергане в период аштарханидов (определение личностей независимых местных эмиров Ферганы, годы их правления, включение территории в состав Бухарского ханства и создание здесь административно-территориальных единиц, даты, касающиеся их правителей);

показана важная геополитическая роль Ферганской долины в отношениях аштарханидов с Казахским и Яркендским ханствами;

разработаны предложения и рекомендации для исследования истории Ферганской долины в период аштарханидов и лучшего понимания сущности процесса возникновения Кокандского ханства.

Достоверность результатов исследования объясняется тем, что в диссертации были использованы новые достижения в изучении истории Отечества, эффективные теоретические методы, ее основанностью на сведениях рукописных источников, хранящихся в престижных научных фондах Узбекистана и мира, которые были сравнительно проанализированы с данными научной литературы, внедрением данных диссертации в практику, подтверждением полученных результатов компетентными организациями.

Научная и практическая значимость результатов исследования. Научная значимость результатов исследования заключается в том, что они служат изучению истории династии аштарханидов в направлении локальной

истории, методом микроистории на примере Ферганской долины, изучению влияния процессов в центральных регионах на периферию, анализу значения и роли Ферганской долины в политических процессах на северо-восточных границах Бухарского ханства, глубокому пониманию исторических корней возникновения Кокандского ханства.

Практическая значимость результатов исследования заключается в том, что они могут быть применены в научных исследованиях, проводимых по изучению периода аштарханидов, при реализации государственных программ по истории Узбекистана и Ферганской долины, при создании учебной литературы нового поколения для учащихся школ, лицеев и высших учебных заведений с целью пропаганды новых аспектов средневекового периода истории Узбекистана.

Внедрение результатов исследований. На основании результатов, научных выводов и предложений анализа политических процессов в Ферганской долине в период аштарханидов:

научные выводы о том, что на основе сравнительного анализа сведений письменных источников и надгробных надписей внесена ясность в личности правителей Ферганской долины Келдимухаммадхана и Абулмухаммад-султана, и обосновано, что они являются не казахскими султанами, а последними представителями рода шейбанида Суюнчходжахана были использованы при создании сценария передачи «Такдимот» («Презентация») на телерадиоканале «История Узбекистана» (справка №02-06-596 от 2 мая 2024 года государственного учреждения телерадиоканал «История Узбекистана» Национальной телерадиокомпании Узбекистана). В результате была обеспечена насыщенность программы информацией и научными данными об исторических процессах, происходивших в Ферганской долине в начале XVII века;

сведения о том, что включение Ферганской долины в состав государства Аштарханидов происходило в четыре этапа, так как зависело от результата борьбы последних представителей рода Суюнчходжахана за сохранение своей власти и противостояния бухарских ханов с казахскими султанами за северо-восточные территории Мавераннахра (первый этап – период борьбы ферганского Келдимухаммадхана за восстановление династии Шейбанидов (1599-1604 гг.), второй этап – официальное установление власти аштарханидов в Фергане при сохранении фактической власти Шейбанидов (1604-1614 гг.), третий этап – конец правления династии Шейбанидов в долине (1614-1619 гг.), четвертый этап – конец правления султана Аблая в Фергане и включение долины в состав Бухарского ханства (1619-1631 гг.) были использованы в подготовке экспозиции Государственного музея истории и культуры Ферганы (справка № 04-05/1762 Агентства культурного наследия Республики Узбекистан от 8 мая 2024 года). В результате эти материалы послужили обогащению фонда «Исторического отдела» музея, усовершенствованию научности и достоверности музейных источников по истории края;

копии рукописей и научной литературы, вносящих ясность в сведения о личности и правлении ферганских правителей Келдимухаммадхана, Абулмухаммад-султана, Аблай-султана, Пирмухаммад-султана, Мухаммадьяр-султана, Фозилходжи, Бокибия Юза (Ахси), Бахрам-султана (Ахси), Абдурахмана аталыка (Андижан) были переданы отделу «История» Государственного музея истории и культуры Ферганской области, что еще больше обогатило фонд музея (справка № 04-05/1762 Агентства культурного наследия Республики Узбекистан от 8 мая 2024 года). В результате информации, представленной в музее, местные и зарубежные посетители смогли получить новые сведения об истории Ферганской долины в эпоху позднего средневековья и развить свое историческое мышление;

